




**JIZZAX VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024 - YIL YANVAR-IYUN OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)**







Viloyatda faoliyat ko'satayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2433 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 668 ta (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 27,5 % i) Jizzax shahriga, 355 tasi (14,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 266 tasi (10,9 %) G'allaorol tumaniga, 244 tasi (10,0 %) Zomin tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda
sanoat korxonalarining ulushi




Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda korxonalari tomonidan 11451,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G'allaorol tumanida (31 617,1 ming so'm), Zafarobod tumanida (11 367,0 ming so'm) hamda Jizzax shahrida (11 086,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 560,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11132,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Jizzax shahri (19,4 %), G'allaorol tumani (51,8 %), Zafarobod tumani 5,3 %), Paxtakor tumani i (4,6 %) hamda Zomin tumani (3,7 %) hissasiga tog'ri keldi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Mirzacho'l tumanida (112,3 %), Forish tumanida (112,1 %) hamda Jizzax (109,1 %)shahriida kuzatildi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,8 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,7 % ga toʻgʻri keldi.





Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11132,5 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.



mlrd. so'mda



*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,0 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,4 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,2 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 6,7 ming tonna Paxta tolasi (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 46 % ga kamaygan), 10,6 ming tonna Paxta chigiti, 43,5 % ga kamaygan. hamda 8,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (36,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	11 790	13 978	2 188
Paxta chigiti, t.	22 607,6	10 632	- 11 975,6
O'simlik yog'i (tozalangan) t.	4 002,4	5 986,1	1 983,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	6 146 ,7	8 382,8	2 236,1
Paxta tolasi, t.	15 095,0	6797,0	-8 298,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Jizzax Viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 4 160 dona “Chery” (0,1% ga kamaygan), 9 270 dona “KIA” (21,5 % ga oshdi), 542 dona “Haval” avtomobillari ishlab chiqarildi.



“KIA ”

2024-y.

9 270dona

2023-y.

7 626 dona

2022-y.

3 320 dona



“Lada ”

2024-y.

6 dona

2023-y.

2 dona

2022-y.

4 dona



“Haval”

2024-y.

542 dona



“Chery”

2024-y.

4 160 dona


2023-y.

4 163 dona

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,8 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 20,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,2 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 1 112,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 37,5 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 1 005,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkohol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 20,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 674,3 mlrd. so'm ga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 331,8 mlrd. so'm ga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 85,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 172,6 mlrd. so'm kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 323,5 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblari uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 130,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 50,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 50,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 808,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 187,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-iyun
FHI, % da






Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,5 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.






Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash, va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 32,7 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 34,3 % ga oshishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	35 569,7	37 002,0	1 432,3
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	7851,1	15 522,3	7 671,2


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 976,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.



*Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi*



Arnasoy	100,0
165,3	
Yangiobod	100,0
50,7	
Sharof Rashidov	99,9
348,6	
Mirzacho'l	99,1
181,5	
Baxmal	98,5
66,8	
Zarbdor	77,6
87,8	
Forish	60,8
260,7	
Jizzax shahar	53,0
1 157,1	
Paxtakor	44,7
234,9	
Zomin	38,2
163,2	
Do'stlik	22,1
90,2	
Zafarobod	13,6
83,0	
G'allaorol	1,5
86,2	
Jizzax viloyati	26,0
2 976,3	

● mlrd. soʻmda

● Ulushi, % da



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 83 ta loyiha bo'yicha 6815,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 15,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 1206 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

